

## ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH

*Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani  
64-maktab ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi  
Mukimova Zumrad Ruzmatovna*

**Annotatsiya.** Maqolada adabiyot fani darslarida o'quvchilarni mustaqil munozarali fikrlashga o'rgatish usuli A.Qahhorning "O'g'ri" hikoyasi misolida ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** munozara, interfaol metod, tanqidiy fikrlash, tafakkur, uslub, mustaqil mushohada, xulosa.

Bu jihatdan ayniqsa, umumta'lim maktablarida adabiyot darslari yosh avlodni jamiyatning olg'a surayotgan yuksak g'oyalar ruhida tarbiyalash vositasi hisoblanadi. Bugungi kunda interfaol usullarni o'quv jarayonida qo'llash ta'lif tizimida keng tarqalib bormoqda. O'quv jarayoni markazida o'quvchi bo'lishini inobatga olgan holda asosiy e't ibor bu jayonni unga mos va xos ravishda tashkil qilishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarni mustaqil mushohada yuritishga, ularning tafakkur olamini boyitishga qaratilgan metodlarni qo'llash, ayniqsa samaralidir. Interfaol usullaridan foydalanilgan holda o'tilgan darslar o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon qilishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yurutishga chorlaydi. Adabiyot darslarida "Munozara" ususlidan foydalanish o'quvchilarni bir-biri bilan sog'lom raqobatga kirishishga va erkin mulohaza yuritishga undaydi. "Munozara" metodi interfaol ta'lif usullaridan biri hisoblanib, unda muhokama, ma'lum muammo bo'yicha fikr almashinuv ko'rinishida bo'ladi. "Munozara" metodi o'quvchilarda yangi bilimlar shakllantirishda, ularda u yoki bu savolga javob topish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda, o'quvchilarga dalil va dalilga asoslangan xulosa orasidagi farjni tushunib yetishni o'rgatishda, o'quvchilarga o'z fikrida mustahkam turish va uni

himoya qilishga yordam berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Munozara usuli barcha funksiyalarni bajaradi. Ushbu usuldan quyidagi maqsadlar uchun foydalaniladi:

- ✓ yangi bilimlarni shakllantirish;
- ✓ o‘quvchilarda u yoki bu savollarni chuqur o‘ylab ko‘rish, tub ma’nosiga yetishga motivatsiyani ta’minlash;
- ✓ o‘quvchilarga dalil va dalilga asoslangan xulosa orasidagi farqni tushunib yetishni o‘rgatish;
- ✓ kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish, o‘quvchilarga o‘z fikrida mustahkam turish va uni himoya qilishga yordam berish;
- ✓ “Munozara” usuli ikki xil ko‘rinishda olib borilishi mumkin:
  1. Erkin munozara.
  2. Boshqariladigan munozara.

Agar erkin munozara tashkil qilish kerak bo‘lsa, u holda uni faqat boshlab berish va munozaraga aralashmaslik, hakam rolida bo‘lish talab etiladi. Bu yerda, muhokama qilinayotgan jarayonning o‘ziga urg‘u berish va har bir o‘quvchini o‘z dalillarini aniq ifoda etishga rag‘batlantirish lozim. Shuning uchun, agar har bir o‘quvchini ishga solish, yo‘nalishga va bevosita shaxsga ta’sir o‘tkazish kerak bo‘lsa, erkin munozara o‘tkaziladi. Bunda muhokama qilinayotgan jarayonning o‘ziga urg‘u berish va har bir o‘quvchini o‘z dalillarini aniq ifoda etishga rag‘batlantirish lozim. Masalan, Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasini o‘rganganda o‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi munozarali savollar bilan murojaat qiladi:

- 1.Hikoyadagi o‘g‘ri aslida kim?
- 2.Qobilboboning o‘zi o‘g‘rimi?

O‘qituvchi istiqlol yillarda “O‘g‘ri” hikoyasi haqidagi qarashlarni bayon qilib, o‘quvchilarni ko‘proq hikoyaning bosh qahramoni Qobilbobo obrazi atrofida munozara yuritishga undaydi. Shu bilan birga asardagi boshqa obrazlar yuzasidan ham mulohaza yuritishga, munozarali o‘rinlarda erkin fikr bildirishga chorlaydi. Obrazlar yuzasidan tanqidiy, tahliliy fikr yuritishga undash lozim boladi. Boshqariladigan munozarada o‘qituvchi har doim o‘quvchilar fikr-mulohazalarining to‘g‘ri yoki

noto‘g‘riligiga e’tibor qaratadi, jarayonga faol aralashib turadi. Har ikki holatda ham o‘qituvchi o‘quvchilar fikrini inobatga olishi, ularga hurmat bilan yondashishi talab etiladi. Shu bilan birga o‘quvchilarni darslarda ko‘proq bahsli tortishuvlarga sabab bo‘ladigan muammolar yechimini topishga, tanqidiy fikrlashga ham jalb etish lozim.

Munozarali savollarni analistik sintetik tahlil qilish va obyektiv fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun talaygina metodlar mavjud. Ro‘y berayotgan voqelikni tanqidiy fikrlash asosida baholash, chunonchi, o‘quvchining o‘z fikrini erkin ifodalashdan iborat bo‘ladi.

O‘quvchiga yechimini topish, taklif etilgan muammo bo‘yicha o‘z o‘rnini aniqlab olishi uchun imkon beriladi. Muammoga o‘quvchidan javob olish uchun qator savollar bilan murojaat qilish mumkin: Sizning fikring qanday? Bu haqda siz nimalarni o‘ylaysan? va h. k.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, dars jarayoni o‘quvchining o‘zligini anglash va o‘z-o‘zini boshqarish manbaidir. Bugungi kunda dars jarayoni o‘qituvchidan alohida mahorat talab qiladi va uni hech qanday tayyorgarliksiz amalgaga oshirib bo‘lmaydi. Har bir o‘quvchini dars jarayonini ajralmas bo‘g‘iniga aylantirish, berilgan savolni hal qilish uchun o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash, mustaqil fikr yuritishga jalb qilish o‘qituvchidan ijodkorlikni talab qiladi. Dars jarayonida o‘quvchi eng yangi ilmiy nashrlar, internet ma’lumotlari, olingan so‘nggi ma’lumotlardan unumli foydalansa, mustaqil fikrlash va mustaqil tafakkur yuritishni o‘rganadi. Dars jarayonini to‘g‘ri tashkil qila olish esa o‘qituvchidan katta pedagogik mahorat talab qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. B.To‘xliyev. “Adabiyot o‘qitish metodikasi”. Toshkent-2010.
2. Yo‘ldoshev Q, Madayev O. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
3. Xusanboyeva K. Adabiy ta’limda mustaqil fikrlashga o‘rgatish asoslari. – Toshkent, 2003.
4. Khakimov, S. R., & Sharopov, B. K. (2023). Educational Quality Improvement Events Based on Exhibition Materials in Practical Training Lessons. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education*, 1(2), 5-10.

5. Хакимов, С. (2023). ПОВТОРНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОДЫ В АВТОМОЙКАХ ПУТИ МАРШРУТИЗАЦИИ. *TECHника*, (1 (10)), 1-5.
6. Yuvmitov, A., & Hakimov, S. R. (2021). Influence of seismic isolation on the stress-strain state of buildings. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent*, 11(1), 71-79.
7. Ювмитов, А. С., & Хакимов, С. Р. (2020). ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ СЕЙСМОИЗОЛЯЦИИ НА ДИНАМИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЗДАНИЯ. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent*, 10(2), 14.
8. Xakimov, S., & Dadaxanov, F. (2022). STATE OF HEAT CONDUCTIVITY OF WALLS OF RESIDENTIAL BUILDINGS. *Science and innovation*, 1(C7), 223-226.
9. Rasuljon o'g'li, K. S., & Muhammadjanovna, K. F. (2023). ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF USING STEEL REINFORCEMENTS AND COMPOSITE REINFORCEMENTS IN BUILDING STRUCTURES. *AMALIY VA FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR*, 2(6), 1-5.
10. Хакимов, С., & Тургунбаева, М. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОПЫТА ЯПОНИИ, США И ГЕРМАНИИ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ. *TECHника*, (2 (11)), 17-19.
11. Кодирова, Ф., Хакимов, С., & Тургунбаева, М. (2023). ОСНОВНЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К СОВРЕМЕННЫМ ТЕПЛОИЗОЛЯЦИОННЫМ СТРОИТЕЛЬНЫМ МАТЕРИАЛАМ. *TECHника*, (2 (11)), 5-9.
12. Хамидов, А., Хакимов, С., & Тургунбаева, М. (2023). СТРОИТЕЛЬНЫЕ МАТЕРИАЛЫ НА ОСНОВЕ ЗОЛО-ШЛАКОВЫХ ЩЕЛОЧКОВ. *TECHника*, (2 (11)), 1-4.
13. Хакимов, С., & Фаррух, Д. (2023). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СЕЙСМОСТОЙКОСТИ ЗДАНИЙ И СООРУЖЕНИЙ. *TECHника*, (2 (11)), 10-13.